

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KREATIV
QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

Abdinazarova Madina Eldor qizi

Shahrisabz davlat unsiteti talabasi.

Shahrisabz, O'ZBEKISTON

Tel: +998 88 384 08 31

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativligi hamda ijodga intilishligi qolaversa hayotga ijodiy yondashish va o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish shuningdek tahlil etish ruhida tarbiyalash jarayonlarining mazmun-mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar va tushunchalar: o'qituvchi, o'quvchi, boshlang'ich, kreativ, qobiliyat, rivojlanirish, sifat, sinf.

Annotation: the article describes the essence of the process of educating future elementary school teachers, in addition to the desire for creativity, a creative approach to life and a constant critical look at oneself, as well as in the spirit of analysis.

Keywords and concepts: teacher, reader, beginning, creative, ability, Development, Quality, class.

Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlanirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Kreativlik tushunchasi (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi. Haqiqattan esa yangi, original (o'ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma'naviy bog'liqliklarni yaratishdir[1].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativligini, ijodga intilishligini, hayotga esa ijodiy yondashish, O'ziga doimiy tanqidiy nazar solish

va tahlil etish ruhida tarbiyalash va ta'lim berish lozim. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta"riflash mumkin. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har-xil original g'oyalarni topish layoqatidir[3].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativligi uning ijodiy faoliyatida shakllanadi va rivojlanadi. Kreativlik bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rindi va uni o'zini faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi.

Har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'zini- o'zi rivojlantirishi va o'zini- o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishslash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarda poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi[5].

Bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va

vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishslash, mustaqil o'qib o'rghanishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda tez suratlarda rivojlantirilib boriladi. Odatda kreativlik bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ko'zga tashlanmasada, biroq bu holat kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- 1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;
- 2) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qiziqishlariga e'tibor qaratish[4].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rghanish, o'z ustida ishslash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli va ziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod namunalarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Bugungi kunda jamiyatning mакtab oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarga to'g'ri yondashgan holda ularni amalda bajarish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasidir. Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchi eng faol pozitsiyadagi shaxs sifatida zamonaviy bilimlarni egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo'lishi lozim chunki, u kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual hamda ma'naviy qashshoqlikdan qutqarib qoladi[6].

Hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishini, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilashi hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana olishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondoshish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgirligi, muloqatdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishda javob beradi.

“Kreativlik otasi” nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik ko'nikmasini aniqlagan uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarini shakillantirish va ularni baholash mumkin:

1.Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'ziga asoslanadi.

2.Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab toppish ko'nikmasi degan so'zga asoslanadi.

3.O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.

4.Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi[5].

Kreativlik darslarida pedagoglardan ajoyib g'oyalarni o'ylab topish (o'ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g'oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog'liqlikni topish(moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko'nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

Xulosa qilib aytganda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ta'lim berish jarayonida ularni kreativlik ruhida tarbiyalash lozim bundan tashqari yo'qoridagi fikrlarga tayangan holda doimo o'z ustida tinimsiz izlanishlar olib borish yangilikka intilish kreativ insonlar bilan doimo muloqatda bo'lishi kerak .

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A va boshq.. boshlang'ich sinflarni o'qitish va psixologik xizmatni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.-T.: „Muhammad poligraf “MCHJ, 2017

2.Bekmurodova S. Boshlan'ich sinflarni o'qitishda yangicha yondashuv.T.: 2017

3.Shomirzayev M.X. Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muammolari // Zamonaviy ta'lim. – T., 2019.

4. “Pedagogik kopetentlik va kreativlik asoslari” moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma.: -Toshkent 2015

5. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogic kompetentlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua- Toshkent. 2016